

**“Jadidlar izidan” respublika tanlovini tashkil etish
va o'tkazish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom davlat umumiy o'rta ta'lim maktablari va nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilari o'rtasida “Jadidlarizidan” Respublika tanlovini (keyingi o'rinlarda – Tanlov) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Respublikamizdagi davlat umumiy o'rta ta'lim maktablari va nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining 6-10-sinflarida ta'lim olayotgan o'quvchilar, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va tilidan qat'iy nazar, Tanlovda ishtirok etish huquqiga ega.

3. Tanlovning hududiy va Respublika bosqichlari o'tkazilishi vaqtiga qarab ishtirokchilarning sinfi ham o'sib boradi.

4. Mazkur tanlov Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi ta'lim muassasalari o'quvchilari hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan o'tkaziladigan “Yosh kitobxon” tanlovining Respublika bosqichi ishtirokchilari uchun tatbiq etilmaydi.

5. Tanlovni yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish uchun Respublika “Kelajak” markazi mas'ul hisoblanadi.

2-bob. Tanlovning maqsad va vazifalari

6. Tanlovning maqsadi quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, kitob mutolaasi va kitobxonlikni keng targ'ib qilish;

o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda kitobxonlikni keng targ'ib qilish hamda ularning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish; buyuk jadid alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma'naviy merosini keng targ'ib qilish orqali o'quvchilarni kitobxonlikka jalb etish, ma'naviy dunyosini boyitish, ularda mustaqil va tanqidiy fikrlash hamda vatanparvarlik ko'nikmalarini shakllantirish.

7. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

davlat umumiy o'rta ta'lim maktablari va nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilari orasidan iqtidorli bolalarni aniqlash, ularni qo'llab quvvatlash;

o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni o'quvchilar ongiga singdirish;

mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surgan ajdodlar merosini keng o'rgatish.

3-bob. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi, baholash mezonlari

8. Tanlovni tashkil etish va uni o'tkazish vazifasi Respublika, hududiy va tuman (shahar) tashkiliy qo'mitalari zimmasiga yuklanadi.

9. Respublika, hududiy va tuman (shahar) tashkiliy qo'mitalari:

tanlovni o'tkazish borasida qaror qabul qiladi;

Hakamlar hay'ati va Apellyatsiya komissiyasi tarkibini shakllantiradi va tasdiqlaydi.

tanlovning asosiy bosqichlari va tartib-qoidalari haqida ishtirokchilarni xabardor qiladi;

barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlarni yaratadi;

tanlovni o'tkazishda oshkoralikni ta'minlaydi;

tanlov ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal etadi; mazkur Nizom asosida tanlovning o'tkazilishini tashkil etadi.

10. Tanlov quyidagi ikki sinf toifasi bo'yicha, ya'ni 6-7-8-sinflar hamda 9-10-sinflar o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladi:

11. Tanlov quyidagi uch bosqichda tashkil etiladi:

Birinchi bosqich - tuman (shahar) bosqichi;

Ikkinchi bosqich – hududiy (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar) bosqichi;

Uchinchi bosqich – Respublika bosqichi.

12. Birinchi bosqich 2026-yil oktabr oyida o'tkaziladi.

Mazkur bosqichda ishtirokchilar 2 ta shart asosida bellashadilar. Ushbu birinchi bosqich ishtirokchilari har bir shart bo'yicha 50 ballik, umumiy 100 ballik tizimda baholanadi.

1-shart: Test savollari. Har bir ishtirokchi jadidlar hayoti va ijodiga oid 25 ta test savollariga (har bir to'g'ri javob uchun 2 ball) javob beradilar. Mazkur shartga 25 daqiqa vaqt ajratiladi. Test natijalariga ko'ra, eng yuqori ball to'plagan

ishtirokchilar 2-shartda ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi.

2-shart: Jadidlar hayoti va ijodi.

Har bir ishtirokchi билет tortish orqali tanlovning tuman (shahar) bosqichi uchun tavsiya etilgan jadidlarning hayoti va ijodiga oid savollarga fikr-mulohazalarini 5 daqiqa davomida bayon etadi. Ishtirokchilarga tayyorgarlik ko‘rishlari uchun vaqt ajratilmaydi.

Ushbu birinchi bosqichda har ikkala shart bo‘yicha to‘plangan jami ballar hisobga olinadida ikki sinf toifasi bo‘yicha eng yuqori ball to‘plagan 1 nafardan (6-7-8-sinf 1 nafar, 9-10-sinf 1 nafar) jami 2 nafar ishtirokchi (*natijalar bir xil bo‘lganida qo‘shimcha savollar berish orqali saralanadi*) tanlovning hududiy bosqichida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi.

13. Ikkinchi bosqich 2026-yil noyabr oyida o‘tkaziladi.

Mazkur bosqichda ishtirokchilar 3 ta shart asosida bellashadilar. Ushbu ikkinchi bosqich ishtirokchilari umumiy 100 ballik tizimda baholanadi. 1-shart: Boshqotirma.

Birinchi shartda ishtirokchilar jadidlar faoliyati va asarlariga oid 10 ta savoldan (*har bir savolning to‘g‘ri javobiga 2 balldan*) iborat boshqotirmani to‘ldirishadi. Shartni bajarish uchun ishtirokchilarga 15 daqiqa vaqt ajratiladi (*10 daqiqa boshqotirmani to‘ldirish uchun, 5 daqiqa javoblarni izohlash uchun*).

Mazkur shart 20 ballgacha baholanadi.

2-shart: Asar tahlili.

Ikkinchi shartda ishtirokchilar билет tortish orqali jadidlarning asarlariga oid fikrlarini 7 daqiqa davomida bayon etadi. Ishtirokchilarga tayyorgarlik ko‘rishlari uchun vaqt ajratilmaydi. Mazkur shart 50 ballgacha baholanadi. 3-shart. Insho.

Uchinchi shartda ishtirokchilar jadidlar faoliyati va ijodiga oid mavzular asosida insho yozadi. Insho yozishda ishtirokchilar mavzuning mazmun-mohiyatini to‘liq ochib berishi (*insho hajmi 2-3 sahifadan kam bo‘lmashligi*) lozim. Shartni bajarish uchun ishtirokchilarga 45 daqiqa vaqt beriladi. Mazkur shart 30 ballgacha baholanadi (*insho mavzulari respublika tashkiliy qo‘mitasi tomonidan taqdim etiladi*).

Hududiy bosqichda har ikki sinf toifasi bo‘yicha eng yuqori ball to‘plagan 1 nafardan (6-7-8-sinf 1 nafar, 9-10-sinf 1 nafar) jami 2 nafar ishtirokchi (*natijalar bir xil bo‘lganida qo‘shimcha savollar berish orqali saralanadi*) tanlovning respublika bosqichida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritadi.

14. Uchinchi bosqich 2026-yil dekabr oyida o‘tkaziladi.

Mazkur bosqichda ishtirokchilar 3 ta shart asosida bellashadilar. Ushbu uchinchi bosqich ishtirokchilari umumiy 100 ballik tizimda baholanadi.

1-shart: Jadidlar hayoti, ijodi hamda asarlari tahlili.

Birinchi shartda ishtirokchilar bilet tortish orqali jadidlarning hayoti, ijodi hamda asarlariga doir 5 ta savollarga javob beradi (har bir javob uchun 6 ballgacha). Ishtirokchilarga tayyorgarlik ko'rish uchun 2 daqiqa, savollarga javob berish uchun 7 daqiqa vaqt ajratiladi. Mazkur shart 30 ballgacha baholanadi.

2-shart: Erkin mavzular asosida loyiha taqdimoti.

Ikkinchi shartda ishtirokchi o'zi tanlagan mavzu asosida maktab, milliy ta'lim, xorijiy ta'lim tajribasi, til, ekologiya, teatr, matbuot, tarix, kasb-hunar, milliy qadriyatlar, xotin-qizlar va boshqa tegishli yo'nalishlarni rivojlantirishga qaratilgan loyiha (*loyiha 7-10 sahifadan iborat bo'lishi lozim*) ishlab chiqadi hamda uni taqdimot shaklida namoyish (*10 daqiqa davomida taqdim etilishi lozim*) etadi.

Loyiha amaliy ahamiyatga ega bo'lishi, unda muammoning mazmuni, uni hal etish yo'llari, taklif va yechimlar hamda kutilayotgan natijalar yoritilishi lozim. Mazkur shartda ishtirokchining mavzuni yoritish darajasi, loyihaning dolzarbligi va amaliy ahamiyati, takliflarning yangiligi va asoslanganligi, taqdimotning mazmuni hamda nutq madaniyati baholanadi. Mazkur shart 40 ballgacha baholanadi.

3-shart. Insho.

Uchinchi shartda ishtirokchilar jadidlar faoliyati va ijodiga oid mavzulardan birini bilet tortish orqali tanlaydilar va ushbu mavzu yuzasidan insho yozadi. Insho yozishda ishtirokchilar mavzuning mazmun-mohiyatini to'liq ochib bergan holda 2 sahifadan kam bo'lmasligiga e'tibor qaratishi lozim. Shartni bajarish uchun ishtirokchilarga 45 daqiqa ajratiladi. Mazkur shart 30 ballgacha baholanadi.

Uchinchi bosqichda har ikki sinf toifasi bo'yicha ishtirokchilarning barcha shartlarda to'plagan ballari jamlanadi. To'plangan jami ballar asosida eng yuqori natija qayd etgan ishtirokchilar orasidan I, II va III o'rin egalari aniqlanadi.

Agar ishtirokchilar o'rtasida umumiy ballar teng bo'lib qolsa, Hakamlar hay'ati tomonidan qo'shimcha savollar berish orqali g'oliblar aniqlanadi. 15. Tanlovning tuman (shahar), hududiy va Respublika bosqichlari o'tkaziladigan joyi va vaqti Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan belgilanadi hamda ishtirokchilarga ma'lum qilinadi.

16. Tanlovda ishtirokchilar o'zlari ta'lim olayotgan davlat umumiy o'rta ta'lim maktablari va nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari nomidan ishtirok etadi. 17. Tanlovda ishtirokchilar elektron platforma (jadidlarizidan.uz) manziliga ariza topshirish orqali qatnashadi.

18. Mazkur tanlov uchun adabiyotlar ro'yxati tanlov o'tkazilishidan oldin Tashkiliy qo'mita tomonidan e'lon qilinadi.

4-bob. Hakamlar hay'atining vakolatlari va faoliyati

19. Tanlovning har bir bosqichida ishtirokchilarni baholash va tanlov

natijalarini aniqlash uchun Hakamlar hay'atining tarkibi tuziladi. Hakamlar hay'ati tarkibi tegishli tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlanadi.

20. Hakamlar hay'ati tarkibiga jadidlar merosi, adabiyot, tarix, ma'naviyat, ta'lim va boshqa tegishli sohalarda yetarli bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar jalb etiladi.

21. Hakamlar hay'ati ishtirokchilarning javoblari, yozma ishlari va taqdimotlarini mazkur Nizomda belgilangan mezonlar asosida xolis va adolatli baholaydi hamda barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlar ta'minlanishini nazorat qiladi.

22. Hakamlar hay'ati a'zolari baholash jarayonida ishtirokchilarga nisbatan xolislik va betaraflikni ta'minlashi, tanlov natijalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi lozim.

23. Tuman (shahar) va hududiy bosqichlarining Hakamlar hay'ati bir ish kuni davomida tanlovning yakuniy natijalari yuzasidan bayonnomani rasmiylashtiradi hamda tasdiqlangan holda tashkiliy qo'mitaga taqdim etadi.

24. Tanlovning hududiy va respublika bosqichlarida Hakamlar hay'atining qarori faqat apellyatsiya berish muddatlari va tartibi doirasida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

5-bob. Apellyatsiya berish va uni ko'rib chiqish tartibi

25. Tanlov ishtirokchilari tanlov natijalari va Hakamlar tomonidan qo'yilgan baholar yuzasidan apellyatsiya berish huquqiga ega.

26. Tanlov natijasi bo'yicha berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun uch kishidan iborat Apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyatsiya komissiyasi tarkibi tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlanadi.

27. Apellyatsiya Tanlov natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 20 daqiqa davomida Apellyatsiya komissiyasiga yozma shaklda taqdim etiladi. 28. Apellyatsiya asoslangan bo'lishi va unda e'tiroz bildirilayotgan masala aniq ko'rsatilishi lozim. Belgilangan muddatdan kech berilgan apellyatsiyalar ko'rib chiqilmaydi.

29. Apellyatsiya komissiyasi apellyatsiyani taqdim etilgan vaqtdan boshlab bir soat ichida ko'rib chiqadi va uning natijasini asoslantirilgan holda apellyatsiya bergan shaxsga ma'lum qiladi.

6-bob. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

30. Tuman (shahar) bosqichida ikki sinf toifasi bo'yicha I, II, III o'rinni qo'lga kiritgan ishtirokchilar tegishli hokimliklar tomonidan esdalik sovg'asi va diplom bilan taqdirlanadi.

Tuman (shahar) bosqichida ikki sinf toifasi bo'yicha I o'rinni qo'lga kiritgan ishtirokchilar tanlovning keyingi - hududiy bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi.

31. Tanlovning ikki sinf toifasi bo'yicha hududiy (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar) bosqichida I, II, III o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri hududiy hokimliklar tomonidan esdalik sovg'asi va diplom bilan taqdirlanadi.

Hududiy bosqichda har ikki sinf toifasi boyicha I o'rinni egallagan ishtirokchilar Respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritadi. 32. Tanlovning Respublika bosqichida har ikki sinf toifasi bo'yicha 1 nafardan (*6-7-8-sinf 1 nafar, 9-10-sinf 1 nafar*) jami 28 nafar (*Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahardan 2 nafardan*) o'quvchilar ishtirok etadi. Respublika bosqichida har ikki sinf toifasi bo'yicha eng yuqori ball to'plagan 7 nafardan, jami 14 nafar ishtirokchi xorijiy davlatlarga ta'lim sayohatiga yuboriladi. Bunda I, II va III o'rinlarni egallagan ishtirokchilar hamda keyingi eng yuqori natijalarni qayd etgan 4 nafar ishtirokchi nazarda tutiladi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

33. Mazkur Nizomda nazarda tutilmagan masalalar Tanlovning Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan amaldagi qonunchilik hujjatlari hamda mazkur Nizom talablari asosida hal etiladi.

34. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish jarayonida ishtirokchilarning xavfsizligi, huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ta'minlanadi. 35. Tanlov natijalari, g'oliblarni aniqlash va taqdirlashga oid hujjatlar belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi va saqlanadi.

36. Tanlov ishtirokchilari, Hakamlar hay'ati, Apellyatsiya komissiyasi, Tashkiliy qo'mita va boshqa mas'ul shaxslar mazkur Nizom talablariga rioya etishi shart.

37. Mazkur Nizom talablari buzilgan taqdirda aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.